

FRANSUZ TILIDA YOSHGA DOIR REPRESENTLARNING JISMONIY-PSIXOLOGIK JIHATLARINI IFODALANISHI

Akhrorova Ruzixon Usmanovna
f.f.f.d., (PhD), dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada fransuz tilidayoshga doir representlarning jismoniy-psixologik jihatlarining ifodalanishi misollar yordamida qisqacha yoritilgan.

Annotation

In this article, the expression of the physical and psychological aspects of representations of age in French is briefly explained with the help of examples.

Аннотация

В данной статье на примерах кратко поясняется выражение физического и психологического аспектов репрезентации возраста во французском языке.

Kalitso‘zlar: a (yoki dans) la fleur de l’ âge, de dans la force l’âge, à la fleur de l’âge, dans l’âge bête, mon deuxieme age ingrat, celui de la maturite, beaux jours de la vie.

Keywords: a (yoki dans) la fleur de l’ âge, de dans la force l’âge, à la fleur de l’âge, dans l’âge bête, mon deuxieme age ingrat, celui de la maturite, beaux jours de la vie.

Ключевые слова: a (yoki dans) la fleur de l’ âge, de dans la force l’âge, à la fleur de l’âge, dans l’âge bête, mon deuxieme age ingrat, celui de la maturite, beaux jours de la vie.

Fransuz tili materialida biz tahlil qilgan frazeologik birliklar ichida nafaqat yosh davrlarini ifodalaydigan, balki yosh davrlarining jismoniy-psixologik jihatlarini ifodalovchi frazeologizmlar ham mavjudligi aniqlandi, masalan: a (yoki dans) la fleur de l’ âge – ayni gullagan yoshda.

- Combien y a-t-il de généraux morts à la fleur de l’âge pour l’empereur Napaléon? -demanda-t-il à Lucien après un moment de silence. (H. de Balzac, Splendeurs et misères des courtisanes).

force de l'âge – ayni kuchga to'lgan yosh.

de dans la force l'âge – ayni kuchga to'lgan yoshda.

Laisses faire à Georges, c'est un homme d'âge prov.- aql yoshida bo'lmoq.

Entre en âge – voyaga yetmoq, voyaga yetgan yosh.

Entre en âge de connaissance- aql-hushi kirgan yosh.

L'âge bête – (la partie de l'enfance ou de l'adolescence qu'il plait aux adultes de nommer ainsi) - “qiyin” yosh. Frantsuz tilidagi bete so'zi o'zbek tilida anqov, ahmoq, tentak ma'nolarini anglatadi, ammo frazeologizmi tarkibida esa bolaning sho'x, o'ynoqi davri, ya'ni bolaning bolalikdan balog'at yoshiga o'tish davrini anglatadi. Masalan: j'ai appris un beau jour que je venais d'entrer sans m'en apercevoir dans l'âge bête”. (D.Martin, Le garçon en l'air). Âge de raison- (sept ans; l'age auquel on considere que l'enfant a l'essentiel de la raison) - o'zini tanib, tutib olgan yosh davri, (adolescence)[1:190]. Bu frazeologizmning yetti yoshga to'lgan bolaga nisbatan ishlatilishi shu bilan izohlanadiki, chunki frantsuz tilidagi raison so'zi - aql, fahm, idrok, zehn ma'nolarini anglatib, age de raison frazeologik iborasi tarkibida esini tanigan, aqli to'lgan, biron bir narsaning mohiyatini tushuna oladigan yosh davriga to'g'ri keladi, misollarga murojaat qilamiz: 1. Peu avant mon septieme anniversaire, j'appris que j'allais atteindre l'âge de raison”. Le jour ou mon pere lacha devant moi ces mots bizarre, je pensai: “c'est donc que je n'etais pas raisonnable auparavant”.(D.Martin, Un garçon en l'air).)[3:575] .

2. Je n'avais pas atteint l'âge de raison que nous etions neuf enfants a la maison et pas tous de pere Berteaut, comme nous l'appelions. (S.Berteaut, Piaf). Frantsuz tilida yoshlik davrini yodga soluvchi frazeologik iboralar shu darajada rang barangki, bu esa tilning naqadar frazeologizmlarga boy ekanligidan darak beradi, masalan: a la fleur de l'age (au moment le plus beau de la vie) – eng gullagan yoshlik chog'i, hayotning go'zal onlarini bildirib keladi. Shuningdek, L'age d'un teton (quinze ans) va a coup sur âge con yoki o'tish yoshi, qiyin yosh. (bunga 15-16 yoshlilar kiradi) frazeologizmlari ham balog'at yoshiga yetgan davrni bildiradi[2:166].

Jeune bois, jeune loup, deuxieme age, de la derniere couvee, l'âge ingrat– kabi frazeologik iboralar insonning eng kuchga to'lgan yetuklik yoshi, jo'shqin davrini anglatib keladi, misollar keltiramiz: Au sortir de l'âge ingrat, les femmes suffisamment jolies marchent longtemps sans inquietude sur la vitesse acquise de leur beaute. Aussi, est-ce avec un sincere etonnement que j'ai du accepter l'evidence: j'etais entrée dans mon deuxieme age ingrat, celui de la maturite. (B.et F. Groult, Il etait deux fois).)[4:575] .

Yoshlik chog'i frantsuz poetik tilida – le matin de la vie (poet. jeunesse) frazeologik iborasi bilan ifodalanadi. Bu iboraning mazmuni hayotning erta tongi, ya'ni frantsuzlar hayotning go'zalligini isbotlash maqsadida yoshlik chog'ini erta tongga qiyoslaydi, chunki erta tongda havoning beg'uborligini, tozaligini, o'zgacha go'zallikni his qilish mumkin. Shuningdek yoshlik davrini ifodalovchi frazeologik birliklar premier age - erta yoshlik, bolalik; jeune temps, bel age – yoshlikning go'zal onlari; la premiere saison de la vie - Hayotning birinchi fasli; etre dans la verte saison– yashil faslda bo'lish, ya'ni yoshlikni bahor fasliga o'xshatish, bahordagi go'zallikni timsol qilish, tabiatning yam-yashil libosga o'ranganini eslatish ham insonning yoshlik davrini bildiradi. Yoshlik davrini anglatuvchi beaux jours de la vie - frazeologik iboraning so'zma-so'z tarjimasi hayotning go'zal kunlari bo'lsa ham aslida u beg'ubor bolalik davriga ishora qiladi, xuddi shuning singari la belle saison de la vie - iborasining so'zma-so'z tarjimasi hayotning go'zal fasli, gullagan payti bo'lsada, bu ibora kamolga yetgan, voyaga yetgan yosh davrini anglatib keladi. Insonning yoshi ulg'ayib, balog'at yoshidan o'tgandan keyingi davrni ifodalovchi l'age mur - (so'zma-so'z tarjimasi pishgan yosh) frazeologik birligi ayollarning onalik davrini anglatib keladi, chunki onalik davri o'ziga xos bir davr hisoblanib, unda ayolning eng latofatli davri, o'z mehrini farzandiga berish bilan birga yanada go'zallashgan chog'larini, kuchli, aqlli va serg'ayrat bo'lgan davrini bildiradi.

Fransuzlarda qirq yoshdan o'tgan ayollarga nisbatan *âge canonique* - iborasi ishlatiladi, bu esa ayolning muqaddas yoshda (qirq yoshdan yuqori) ligini anglatadi, ya'ni bu yoshda ham ayol kishi o'ziga xos iffatda, sharm-hayo bilan o'ziga jalb qiladigan, dadil, serg'ayrat, serharakat, o'ziga va o'zining ishiga e'tibor bilan qaraydigan davri hisoblanadi, masalan: *J'étais arrive depuis une demi-heure, et je faisais ma cour a une ambassadrice d' âge canonique...* (C.Farrere, *L'Homme qui assassina*). *L' âge canonique des protagonistes ne constituait pas, aux yeux de Berthe, une presumption en favuer de leur purete.* (J-L. Curtis, *Les forets de la nuit*). [3:2388]. Entre deux ages va etre poivre et sel iboralari semantik jihatdan aynan bir xil ma'noni, ya'ni insonning yetuklik va qarilik orasidagi davrni ifodalaydi, ya'ni yosh ham emas, qari ham emas. Bu iboralarni matnda kuzatamiz: 1. *Surtout il etait trouble par une belle personne, entre deux âges, qui avait de longs cheveux blonds ardents, des yeux d'une longueur exageree...* (R.Rolland, *L'Aube*). 2. *Dans l'allee, le chauffeur faisait les cent pas, en fumant cigarette sur cigarette. Il avait, de la, une vue laterale sur la terrasse, sur le groupe de Mrs Galloway et de ses hotes: les duex vieillards, les deux jeunes gens, la femme entre deux âges.*(J-L. Curtis, *Le the sous les cypres*). 3. *A sa gauche, un homme entre deux âges, dont le regard austere emergeait parfois d'un roman, et planait un moment avec la fumee bleue du tabac sur la salle dont le bourdonnement ou bien diminuait ou bien s'elevait d'un ton.* (M.Vianey, *L'evidence du printemps*). [3:2388]. Misollardan ko'rinib turibdiki, bu o'rinda ayolning husni-jamoli go'zalligidan uning yoshi o'tib qolganini bilib bo'lmaydi, yoshga o'xshaydi, ammo ikkinchi tomondan yoshi o'tganligini bilish mumkinligi sababli ushbu ibora qo'llanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Akhrorova R.U. "Yosh" tushunchasi lingvistik talqini. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) : 5.938. №2. 2023.03.16. –B.187-190.
2. Akhrorova R.U. Lexical-semantic expression of early youth/jeunesse in french. International scientific and practical in "Modern philological

paradigms: interaction of traditions and innovations II". №41. 2022.04.05.
–B.166-168.